

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

*Xojimatova Sayyoraxon Toxirjonovna*

*Andijon viloyati Bo'ston tumani MMTB tasarrufidagi*

*16-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari, boshlang'ich sinf darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o'rgatish, ta'lim jarayonida zamonaviy aloqa va axborot texnologiyalari tizimini keng ko'lamda rivojlantirish to'g'risida to'liq bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, axborot kommunikatsion texnologiyalari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, intellektual qobiliyatlar.

**Kirish:** Ma'lumki, axborot kommunikatsion texnologiyalarini boshlang'ich sinf darslarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quv motivatsiyalarini yanada oshirish imkonini yaratadi va o'quvchining bilish faoliyatini ta'minlaydi. Darsni yuqori estetik va emotsional darajada o'tkazish imkonini beradi. Axborot - kommunikatsion texnologiyalari bilim, dalil va qonunlarni taqdim etishda hamma imkoniyatlarni o'zida jalb qila olgan usul va metodlar sanaladi. Har qanday texnologiya - bu axborot texnologiyalari bo'lib, uning negizini ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash tashkil qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Boshlang'ich ta'limda darslarni shu yordamida tashkil qilish, dastlab, o'qituvchining innovatsion faoliyatiga, ijodiy tafakkuriga bog'liqdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quv texnologiyasining bevosita yetkazuvchisi sifatida yangiliklardan xabardor bo'lgani holda dars jarayonini qiziqarli olib borishi kerak. Dars berayotgan sinfiga aloqador bo'lgan didaktik materiallarni, darsliklarni, uslubiy qo'llanmalarni va elektron o'quv vositalarini ham mukammal o'rganishi, ularni darslarda foydalana olishi kerak. Bola ilk marta maktabga qadam qo'yar

ekan, bilimlar olamiga tushib qoladi. Shu bilan birga zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar, internetni nafaqat maktab, litsey, kollej va Oliy o'quv yurtlariga, balki har bir oilaga joriy etish harakatlari hozirgi vaqtda yanada takomillashib bormoqda. Darhaqiqat, zamonaviy aloqa va axborot texnologiyalari tizimini keng o'rinda rivojlantirish davlatimiz va jamiyatimizning taraqqiyot darajasini ko'rsatiladigan mezonlardan biri sifatida xizmat qiladi. "Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini yaratadi, mustaqil faoliyatlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.

**Natijalar:** O'qituvchi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalansa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri shakllana boradi. O'qituvchi esa darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning muhim bo'lgan tayanchi emas, balki o'quvchiga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish, shuningdek esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida e'tibor berilishi kerak. O'qituvchi esa darsning muhim boshqaruvchisidir. Ta'lim tarbiya tizimining hozirgi kundagi vazifasi ulg'ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan, komillikka harakat qilayotgan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Bu jarayonda o'qituvchining roli beqiyosdir. Bugungi kunda mamlakatimiz tomonidan o'qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash, ular faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda o'quvchilarning dastlabki egallaydigan bilimlarning poydevori mustahkam bo'lishi, hamma fanlarni o'zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida kerak bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilib kelinmoqda.

**Muhokama:** O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini takomillashtirish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, hozirgi pedagogikaning asosiy vazifalaridan. Darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil qilish, o'quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata

olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o'rgatish, o'qitilayotgan fanni o'zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa sanaladi. Bu borada boshlang'ich ta'limni o'qitishda ham turlicha uslublar foydalanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Boshlang'ich ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligini belgilash, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni foydalanishning eng asosiy ko'rsatkichlaridan sanaladi. Bu sohada erishilayotgan yutuqlarni hisobga olib, kompyuter texnologiyasini quyidagi jihatlarda ta'lim muassasasi umumiy faoliyati jarayonlarida foydalanish samarali bo'lishini ta'kidlash kerak. Boshlang'ich ta'limni axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlari zamonaviy telekommunikatsiya vositalari va tarmoqli axborot texnologiyalaridan foydalanishni bildiradi. Bunday vositalarni foydalanishda umumta'lim maktablar va oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonining samaraligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf nafaqat savod o'rgatish darslarida, balki barcha fanlarda unumli foydalanish yaxshi samara beradi. Ilmiy tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarning nazariy, ijodiy va reflektiv tafakkuri takomillanishiga yuqori ta'sir ko'rsatadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli tarzda saqlanishi o'quv materialini boyitib, uning o'zlashtirilishiga yaqindan yordam beradi. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy qilinishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini yaratishdir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Rasulov O. Zamonaviy elektron darsliklarning didaktik xususiyatlari Kasb-hunar ta'limi. 2005.
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.
3. Eshmirzaev, G. Boshlang'ich sinflarni o'qitishda elektron darsliklarni o'rni. Innovations in primary education, 2021.
4. G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. – T.: 2016.